

**"BOBURNOMADAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLER"TAHLILI**

*Termiz davlat universiteti Özbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi*

*Xudoyberdiyeva Sarvinoz*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ulug' mutaffakir, shoh va shoir bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub Boburnoma asaridagi frazeologik birliklar tahlil etiladi va ma'nolari yoritiladi. Asarning mohiyatan kelib chiqishi va undagi ma'noviy jihatlar tahlil etiladi.

**Kalit sózlar:** Frazeologik birliklar, tahlil, tamoyil, nazariya, mazmuniy faktlar

### **Kirish**

Muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur. Eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/1519—1530). „Boburiya“, „Voqeozi Bobur“, „Voqeanoma“, „Tuzuki Boburiy“, „Tabaqoti Boburiy“, „Tavorixi Boburiy“ kabi nomlar bilan ham ma'lum. Boburning o'zi esa „Vaqoye“ va „Tarix“ degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada 1494—1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o'ta aniqlik bilan bayon qilingan bo'lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Boburnoma — jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; o'zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. "Boburnoma" o'zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko'ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494—1504), Afg'oniston (1504—1524) va Hindiston (1524—1530)dagi hukmdorlik davriga bo'linadi. Birinchi qismda Boburning otasi — temuriylarning Farg'ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461—1494) xususida hamda Boburning Farg'ona taxtiga o'tirishi (1494-yil iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o'z ulusidan mahrum bo'lishi (15-asr 90- yillari), Samarqand uchun Shayboniyxonqa qarshi olib borgan jangu jadallari (1497—1501)ning behuda ketishi va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog'lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg'onistonga yuz tutishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan. Ikkinci qismda Boburning Kobulni zabit etgani, so'ng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg'ol qilgani (1511), lekin shayboniylar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton)dan yengilib (1512), Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabit etishga hozirlik ko'ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan. Muallif shahar va joy nomlarini tavsiflab, ularning nomlanish sababiga e'tibor qaratgan. Jumladan, Qarshi shahri haqida: "Qarshi viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar, Qarshi mo'g'ulcha ottur, go'rxonani mo'g'ul tili bila qarshi derlar. G'olibo bu ot Chingizzon tasallutidin so'ng bo'lg'ondur. Kam obroq yerdur, bahori xub bo'lur, ekini va qovuni yaxshi bo'lur" [Boburnoma, 1989, –B. 47]. Atoqli toponimist olim S.Qorayev qadimgi turk tilida qarshi "ko'shk",

“saroy”, “xon qarorgohi” demak. Lekin XV-XVI asrlarda bu so‘z “mo‘tabar shaxslar qabriga qurilgan dahma maqbara” ma’nosini olgan, deya qayd etgan [Qorayev S. 2006, –B.310]. Shahrisabz shahri nomining kelib chiqishini muallif quyidagicha izohlaydi: “Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo‘b sabz bo‘lur uchun Shahrsabz ham

derlar” [Boburnoma, 1989, –B. 47]. “Kandibodomdur agarchi qasaba emas, yaxshig‘ina qasabachadur. Bodomi yaxshi bo‘lur. Bu jihatdin bu ismg‘a mavsumdur. Xurmuz va Hindustong‘a tamom muning bodomi borur” [Boburnoma, 1989, –B. 47]. Boburning Kandibodom haqidagi ushbu fikri diqqatga loyiqdir. Konibodom hozirgi Tojikiston Respublikasi Sug‘d viloyatidagi shahar bo‘lib, Farg‘ona vodiysining g‘arbiy qismida, Katta Farg‘ona kanali bo‘yida joylashgan. Konibodom 1463-yildan Kandibodom deb tilga olinadi. Ba’zi adabiyotlarga ko‘ra, Konibodom IX-X asrlardan ma’lum. Shuningdek, Konigil o‘langi xususida ham bir necha fikrlarga duch kelamiz. S.Qorayev ma’lumotlarida Koni gil – tuproq koni desalar, boshqalar, chunonchi,Fazlulloh bin Ro‘zbexon “Mehmonomayi Buxoro” asarida Koni gul, ya’ni “gullar koni” deyiladi. Bobur esa “o‘langning oti Koni obgir” deb yozadi. Bu esa haqiqatga yaqin. Chunki Siyob suvining “atrofi tamom obgir”, ya’ni botqoq bo‘lgan (obgir atamasi “Boburnoma”da bir necha joyda uchraydi) Demak, Koniobgir astasekin o‘zgarib Konigil shaklini olgan [Qoprayev S. 2006, –B.310]. “Boburnoma”da G‘urband tumani nomi haqidagi fikrlar ham e’tiborga loyiq: “Yana bir G‘urband tumanidur. Ul viloyatlarda ko‘tallarni band derlar G‘o‘r sari bu ko‘tal bila borurlar, g‘olibo ul jihatdin G‘urband debturlar” [Boburnoma, 1989, –B.

123]. Bobur bandning ko‘tal deb aytilishini ko‘rsatgan. Ko‘tal – “dovon”, “tog‘ yo‘li”. Shuningdek, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg‘oniston, Eron va Ozarbayjonda ko‘tal, ko‘tel, xutel shakllarida joy nomlari tarkibida uchraydigan geografik atama. Ko‘tal so‘zi ham dovon atamasi kabi mo‘g‘ulcha degan fikr bor. Ko‘tal pastroq dovонни bildiradi [Qorayev S. 2006, –B.197].

Bu atama haqidagi to‘liqroq ma’lumot M.Normurodov va T.Nafasovlarning «Chiroqchinoma» kitobida uchraydi: ko‘tal termini quyidagicha izohlanadi: “Tog‘li tumanlar aholisi oshib o‘tiladigan yo‘li bo‘lgan balandlik – kichik dovon, tog‘ning kichik tizmasi, yuksak qirni ko‘tal deyishadi. Bu atama fors va tojik tillariga ham o‘tgan. Tojik tilida ko‘tal – baland tepa; dovon (ag‘ba). Fors tilida ko‘tal – tog‘ yo‘li, dovon. Tojikiston va Qirg‘izistonda ko‘tal so‘zli joy nomlari ko‘p. Bobur “...yo‘l yasab dovon ustiga chiqtuk. Ko‘tali Zarin der emishlar” deb yozgan. Ko‘tal turkiy va mo‘g‘ul tillariga xos so‘z. Mo‘g‘ul tilida xo‘to‘l – tepa, uncha yuksak bo‘lmagan qiya balandlik” [Normurodov M., Nafasov T. 2010, –B.23].

### **Asosiy qism**

“Boburnoma” asaridagi frazeologik birliklar tahliliga keladigan bolsak unda Boburnoma”dagi frazeologik birliklarning kognitiv-kontseptual o‘rganish,

"Boburnoma" (2002), "Boburnoma"ning tabdili (2008), ruscha tarjimasi (2008), J.Leyden-V. Erskin (1826), A.S.Beverij (1921) va V.Tekston (1996)ning inglizcha tarjimasiga bag'ishlangan. Zahiriddin Muhammad Boburning dunyoga mashhur asari "Boburnoma"da qo'llangan frazeologik birliklar bir necha yillar davomida o'rganilgan va o'zbekcha, inglizcha ruscha tarjimalari qiyoslanib tadqiq etilgan. Asarda qöllanilgan quyidagi frazeologik birliklarni körushimiz mumkin: Söz söramoq, söz og'zida puypamoq, sözni qöymoq, yumshoq söz aytmoq, yarash tarqin oraga solmoq, xilvat sözü bölmoq, sözü mötabar va san'at, sözlari bir-biriga qovushmoq, sözini oraga solmoq, söz kelturmoq kabı. Yuqorida qöllanilgan misollarning barchasi, "Boburnoma"da qöllanilgan frazeologik birliklar bölib quyidagi misolda uning mazmunini köramiz. Sening haqqiningda yomon bordummikim, töshung bila belinga ikki qilich bog'lab, cherik tortib, bizning viloyatlarning ustiga kelib bundoq shör va fitna solursen Qari mabhud, mardak bir-ikki söz og'zida puypadi, sözlary olmadi muqobalada ham demay bundoq muskat sözlarga ne deya ham olg'ay edi. Keltirilgan parchadagi söz og'zida puypadi sözü frazeologik ma'noni orttirishga xizmat qilgan desak muqoyasa bölmaydi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, ushbu asarda nafaqat tilshunoslikka oid balki boshqa sohalarga oid sözlarning frazeologik tahlil ostiga olinib mazmuniy ifodalab berilganini guvohi bölishimiz mumkin. Asar mukammalik darajasi nihoyatda mazmundorligi bilan boshqa asarlardan farq qilishini körushimiz mumkin.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Annamaria Shimmel. "The empire of the great mughals". - London, 2004. 351p.
2. Beveridge, Anette Susannah. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. - London, 1921. - 880 p.
3. Zahiriddin Muhammad Bobir. Bobirnomma. Shamsiev P, Mirzaev S. - T.: O'z SSR Fan nashriyoti., 1960. - 514 b.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - T.: Sharq, 2002. - 335 b.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. -T.: O'qituvchi, 2008. -287 b.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi - T.: Sharq, 2017. - 688 b.